



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИНСТИТУТИ
КАМОЛОТ ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ҲАРАКАТИ



**“ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИНИНГ
ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ”**

*мавзусидаги анъанавий XV- ёш
олимлар, магистрантлар ва
иқтидорли талабаларнинг илмий-
амалий анжуман*



*XV – traditional Republic scientific –
practical conference of young scientists,
master students and talented students
under the topic*

**“THE MODERN PROBLEMS OF
AGRICULTURE AND WATER REOURCES”**

МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ

Тошкент – 2016 йил 15 – 16 апрель

8-ШЎБА			
Сув хўжалиги масалаларида математик моделлаштириш усуллари ва ахборот технологияларини қўллаш			
57.	Каримова Х.Х. - ТИМИ и.ф.н., Абдуллаев О. - ТИМИ талабаси	Фермер хўжаликлари ишлаб чиқаришини ривожлантириш муаммо ва омиллари	147
58.	Абдуллаева М.В., Зухридинова К.К., Савина А.О. - студенти ТИИМ	Задачи на оптимизацию земельных ресурсов	150
59.	Абдуллаева М. В., Исроилова З., Нарзуллаев Ж., Исаева Ш. - студенти ТИИМ	Применение неравенства коши к исследованию функции	153
60.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Абулхаев Э. - ТИМИ талабаси	Microsoft excel электрон жадвалида дастурлаш технологиялари	155
61.	Abdusamadov B. - TIMI talabasi	Internet jahon iqtisodiy inqirozi davrida	158
62.	Каримова Х.Х. - к.э.н.ТИИМ, Алимов У., Умарова Ш. - студенти ТИИМ	Анализ модели выбора оптимального варианта развития производства фермерских хозяйств	160
63.	Boboqandov Sh.R. - TIMI talabasi	Kompleks ildizli arifmetik tenglamalarning fizikaviy masalalarda tadbiqu	163
64.	Бойқулов Ж., Боратов В., Ўролова М. – ТИМИ талабалари	Ҳозирги замон физикасининг асосий муаммолари	165
65.	Djamolova X.S. - TIMI assistenti, Djamolova A.R. - TIMI talabasi	Injenerlik masalalarining matematik modelini tuzish	167
66.	Айнақулов Ш. А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Джамалова А.Р. - ТИМИ талабаси	Электр занжиридаги ток тақсимоти масаласини математик модели	169
67.	Джамалова Х.С. – ТИМИ ассистенти, Джамалова А.Р. - ТИМИ талабаси	Истеъмолчиларни электр энергияси билан оптимал таъминлаш	172
68.	Джамалова А.Р. - ТИМИ талабаси	Комплекс қувватли функциялар учун конформ акслантиришлар	173
69.	Djamolov K. - TIMI dotsenti Aynaqulov Sh.A. - TIMI katta o'qituvchisi	O'zaro induktiv bog'langan zanjirdagi tok kuchining matematik modeli	177
70.	Kamolov O., Sherboyev H. - TIMI talabalari	Iqtisodiy masalalarni chiziqli algebra elementlari yordamida yechish	180
71.	Aynaqulov Sh.A. - TIMI katta o'qituvchisi, Maxmudov V. - TIMI talabasi	Internetning uz hududida domenni ro'yhatdan o'tkazish haqida	182
72.	Po'latov S. - TIMI talabasi	AutoCAD dasturida uch o'lchamli modellashtirish bosqichlari	185
73.	Пўлатов С. - ТИМИ талабаси	Болтли бирикмаларни лойиҳалашда компьютер технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги	187
74.	Roziqov R., Oripov X., Qudratov M., - TIMI talabalari	Iqtisodiy masalalarni yechishda analitik geometriya elementlarini qo'llash	191
75.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Саидазимова М. - ТИМИ талабаси	MS EXCEL дастурида макрокомандалар	193

76.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Хамидов С. - ТИМИ талабаси	Microsoft word дастурида макрорекордерлар билан ишлаш	196
77.	Шербоев Ҳ. - ТИМИ талабаси	Иқтисодиётда математиканинг тутган ўрни	198
78.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Шодмонова И. - ТИМИ талабаси	Microsoft excel дастурида фойдаланувчи функцияларини қўллаш	200
79.	Rahmonov I., Davlatyorova N. - TIMI talabalari	Funksiyaning differensial yordamida masalalarni taqribiy yechish	203
80.	Дулдулова О.О., Хафизов Б.З. – студенти ТИИМ	Элиминативная форма обратной матрицы	205
81.	Абдуллаев М.Х., Эркинов Р.Ш. – ТИМИ талабалари	Электр занжирлардаги жараёнларнинг дифференциал тенгламаларини тузиш ҳақида	207
82.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Жавқаев Х. – ТИМИ талабаси	Интернет - яратилиш ва ривожланиш тарихи	210
83.	Raximov J. - TIMI talabasi	Moodle tizimining kelib chiqishi va undan foydalanish	212
84.	Komilova X.M. - TIMI assistenti, Yuldashева D. - TIMI talabasi	Elementar matematikaning asosiy formulalarini yer sathi yuzasini hisoblashga tadbiri	215
85.	Джамолова А.Р., Қаландаров М.А. - ТИМИ талабалари	Электр занжирдаги ток кучининг ўзгариш қонунини дифференциал тенгламалар ёрдамида топиш	218
86.	Каримова Х.Х. - ТИМИ и.ф.н., Рустамов Ф. - ТИМИ талабаси	Фермер хўжалиklarини ривожлантиришда ер майдони ўлчамининг ахамиятини тахлили	221
87.	Хайдаров А., Алибаева З. - студенти ТИИМ	Применение дифференциальных уравнений к различным задачам	223
88.	Мавлонов С.П. - ТИМИ ассистенти, Бахромқулов Д.А. - ТИМИ талабаси	Фермер хўжалиklarида экин майдонлари таркиби ва ихтисослашувини оптималлаш модели	225
89.	Бозорбоев Т.Н., Усманов С.С. - ТИМИ талабалари	Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини гаусс методи билан ечиш	228
90.	Эшматов Б.Х. - .доцент ТИИМ, Рузиев С.Б - ассистент ТИИМ	Математическая модель задачи о динамической устойчивости вязкоупругой пластины из композиционного материала	230
91.	Хўрозбоев М.Р., Алибеков И.Т. – ТИМИ талабалари	Эксперимент натижаларидан фойдаланиш	233
92.	Алибеков И.Т., Хўрозбоев М. Р. – ТИМИ талабалари	Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини интеграция усулида ечиш	236

INTERNETNING UZ HUDUDIDA DOMENNI RO'YXATDAN O'TKAZISH HAQIDA


Aynaqulov Sh.A. - TIMI katta o'qituvchisi, Maxmudov V. - TIMI talabasi

Annotatsiya

Maqolada Internet tizimidagi xosting xizmati va UZ milliy domeni zonasidagi donenlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi paytda axborot texnologiyalari hayotda jadallik bilan rivojlanib, turmushimizning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelmoqdi. Yangi axborot texnologiyalar dunyoning eng rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida iqtisodiyotning yangi serdaromad sohasiga aylanmoqda. Yangi iishchi joylar vujudga kelib, keng imkoniyatlar ochilmoqda, iqtidorli mutaxassislar eng zamonaviy texnologiyalarni yaratyaptilar va ularning mahsulidan foydalanyaptilar.

Yangi saytni tashkil qilishdagi tashkiliy masalalardan biri – domen nomini tanlash va uni ro'yxatga olishdir. Mazkur jarayon O'zbekistonda barcha boshqa davlatlar kabi nomarkazlashgan tartibda tashkil etilgandir. Ya'ni, Internetning UZ hududida taqsimlangan ro'yxatga olish tizimi amal qiladi. Unga ko'ra, 3 darajali o'zaro aloqalar modeli tashkil etilgan:




1-rasm. Uch darajali o'zaro aloqalar modeli.

UZ domenining administratori UZ domenining asosiy Ro'yxati (Reestr)ni boshqaruvchi davlat tomonidan vakolatlangan tashkilot bo'lib, u UZ domenining rivojlanish yo'nalishlarini ham belgilaydi.

Milliy axborot resurslarining rivojlanishi va jahon axborot hamjamiyatiga kirib borishini xisobga olgan holda Internet tarmog'ida milliy segmentni rivojlantirish dolzarb masala xisoblanadi. 2003 yil 27 martda Internet manzillari va nomlarini belgilash Korporatsiyasi (ICANN) tomonidan imzolangan ccTLDuzga homiylik qilish kelishuviga ko'ra, O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining UZINFOCOM Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish Markazi O'zbekistonning yuqori darajali UZ (ccTLDuz) domen zonasining ma'muri etib belgilangan.

Milliy axborot resurslarini rivojlantirish bo'yicha Xukumat qarorlari va chora-tadbirlari rejasini amalga oshirish natijasida UZ milliy domeni zonasidagi domen nomlarining soni yildan yilga ortmoqda. Jumladan, 2010 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra UZ Milliy domen zonasidagi domen nomlarining soni 10753 tani tashkil etadi, yil boshiga boshiga nisbatan bo'lganulush 12,4% ni tashkil etdi (2-rasm) [1].



2-rasm. UZ milliy domeni zonasidagi faol domen nomlari dinamikasi.

Domen nomlarini ro'yxatga oluvchi kompaniyalarda domen nomlarini ro'yxatga olish narxi o'rtacha 15-18 AQSH dollarini tashkil qiladi, ro'yxatga olishni uzaytirish narxi esa taxminan 14-16 AQSH dollariga to'g'ri keladi. Bu esa boshqa hududlarga tegishli bo'lgan domenlarga qaraganda ancha arzonidir.

Ro'yxatga oluvchi (registrator) – UZ domenlarini ro'yxatga oluvchi yuridik shaxs bo'lib, UZ domenining administratori bilan o'zaro shartnoma asosida domenlarni ro'yxatga olish va domen nomi haqidagi zarur ma'lumotlarni asosiy Ro'yxat (Reestr)ga kiritilishini ta'minlovchi xizmatni amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda UZ domen zonasida ikkinchi darajali domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi 6 ta kompaniya faoliyat olib bormoqda:

1. “Tomas” MCHJ;
2. “Sarkor Telecom” MCHJ;
3. “Amaliy Aloqalar Biznesi” MCHJ;
4. “BILLUR COM” MCHJ;
5. “Arsenal-D” MCHJ;
6. “Simus” MCHJ.

Domen nomlarinig administrator(sayt egasi) –yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, domen uning nomiga ro'yxatga olinadi. Mazkur uchlikdagi har bir a'zo o'z vazifasi va o'z vakolatlariga egadir. Ta'kidlash kerakki, bizning UZ milliy Internet hududimizning tarkibi ko'p jixatdan bularning eng so'nggisi, ya'ni **domen nomining administratoriga** bog'liq. Negaki, aynan sayt egalari mamlakat axborot makonining mazmuni va tarkibini yaratadi. Bu esa siz va biz demakdir!

Hozirgi kunda milliy domenimizni rivojlantirish maqsadida domen ro'yxatdan o'tkazuvchi registratorlar borgan sari ko'payib bormoqda, bu esa milliy domendan keng qamrovda foydalanishga imkon yaratadi.

Yana bir muhim jihat, saytni yaratish bilan bog'liq tashkiliy jarayonlarga, shuningdek, domen uchun “istiqomat” joyini belgilash ham kiradi. Ushbu jarayon web -xosting deb ataladi.

Web-xosting(xalq orasida ko'proq “xosting” atamasi ommalashgan) deb, foydalanuvchi uchun ma'lumotlarni saqlash va tarmoq orqali u bilan ishlash maqsadida Internet provaydning serverida ma'lum

disk maydonini ajratish tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu web-saytning “yashash” joyini va texnik qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlash demakdir [2].

Saytni qay darajada rivojlanishi ko‘p jihatdan xostinglarga ham bog‘liq. Xosting qanchalik qulay va ishonchli bo‘lishi sayt kelajagini qaysidir ma‘noda belgilaydi. Shuni hisobga olgan holda O‘zbekistonda milliy web-xostinglarni ko‘paytirish va mavjud xostinglarni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Qulaylik yaratish maqsadida milliy operatorlarimiz uchun bepul bo‘lgan tas-ix hududi barpo etilgan. Bu hududni yaratilishiga sabab milliy operatorlarimiz xizmatidan foydalanuvchilarga bepul, sifatli internetni taqdim etishdir. Shu bilan birga sayt yaratuvchilar uchun ham katta auditoriya to‘plashga ko‘maklashishdir.

Domen UZ hududida ro‘yxatga olingan bo‘lganiga qaramay ,ayrim hollarda xosting boshqa davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bu qonuniy asosga egadir.

Yodda tutish zarur bo'lgan bir nechta xususiyat mavjud:

- Domen nomi ma‘lum bir muddatga ro‘yxatga kiritiladi. Bu muddat sayt egasi va ro‘yxatga oluvchi tashkilot o‘rtasidagi shartnomada ko‘rsatilgan bo‘ladi;

- Belgilangan vaqt tugagach, sayt egasi uni uzaytirish uchun ma‘lum bir tadbirlarni amalga oshirishi lozim;

- Belgilangan muddat so‘nggida sayt egasi uni uzaytirish masalasini hal etmasa, domen nomi ochiq hisoblanib, uni olish istagini bildirgan boshqa shaxs tomonidan egallanishi mumkin. Bunday holatni bartaraf etish uchun UZ domenining administratori domen nomlarini Ro‘yxatga oluvchi tashkilotlarga ogohlantirish yuboradi. Bunday xabarnoma 3 marotaba – registratsiya muddati tugashidan 60, 30 va 10 kun oldin jo‘natiladi. Eng oxirgi xabarnoma esa domen nomining deaktivatsiya qilingani va qayta ro‘yxatga olish uchun ochiq hisoblanishi haqidagi ma‘lumotni aks ettiradi.

Mazkur jarayonni ochiq va nomarkazlashgan tartibda tashkil etish maqsadida butun UZ domenining administratori ID.UZ loyihasi bilan hamkorlikda “UZ domeni muddatining nazorati” (“Контроль срока доменов UZ”) xizmatini yo‘lga qo‘ygan. Mazkur servis yordamida sayt egasi o‘zining web-sahifasining amal qilish muddatini doimiy nazorat qilib borishi mumkin.

Nega aynan UZ domenini tanlashimiz kerak?

Tabiiyki UZ domenini tanlamoqchi bo‘lgan yaratuvchilarda ushbu domenni boshqa domenlardan afzalliklari haqida bilish ishtiyoqi bo‘ladi. UZ domenini tanlashimizga quyidagilarni asos deyish mumkin:

- UZ milliy domenimiz. Milliy domen bizning g‘ururimiz!
- Boshqa domenlardan arzonligi.
- Tekshiruv kuchliligi. Bu domenda turli hil yot g‘oyaga ega mazmundagi saytlar yaratilmaydi va yaratilgan barcha saytlar doimo nazoratda bo‘ladi.
- Domen registratorlari ko‘p, bu esa domenni foydalanishda kelib chiqadigan muammolarni oson hal etishga imkon yaratadi.

Xulosa. UZ doneni va uni tashkil etish qoidalari uning O‘zbekistonda rivojlanish dinamikasi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кудратхўжаев Ш. Интернет ва ахборот: хизматлар, фойдаланиш асослари. Тошкент, 2013 йил.

[https://spark.ru/startup/reconcept/blog/11533/rentabelen-li-internet-marketing-vo-vremya-ekonomicheskogo-krizisa-v-strane.](https://spark.ru/startup/reconcept/blog/11533/rentabelen-li-internet-marketing-vo-vremya-ekonomicheskogo-krizisa-v-strane)